

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro
tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi

4-sinf o'quvchilarining o'qish
savodxonligini baholash bo'yicha
o'tkaziladigan PIRLS xalqaro
tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish
uchun

MASHQ
DAFTARI
5

(hudud nomi)

(tuman, shahar nomi)

-sonli mактабнинг

-sinf o'quvchisi

(F.I.SH)



Tuzuvchilar:

N.Nematova – Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi bosh mutaxassisi

D. Baynazarova – Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 302-sonli matabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Taqrizchi:

F.Ikramova – Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi 33-sonli maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Mazkur mashq daftari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish, o‘qiganlarini tahlil va talqin qilish hamda xulosalar chiqara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘srimcha didaktik material sifatida tayyorlandi.

Daftarni tayyorlashda PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqotining ochiq manbalaridan foydalanilgan.

Daftar umumiy o‘rta ta’lim matablarining 4-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan.

Yo‘riqnomा

Hurmatli o‘quvchi! Siz ushbu mashq daftarini bajarish uchun unda berilgan hikoya yoki maqolalarni o‘qib chiqishingiz va o‘qiganlaringiz yuzasidan savollarga javob berishingiz lozim bo‘ladi. Ba’zi savollar osonroq va ba’zilari esa murakkabroq bo‘lib tuyulishi mumkin. Siz barcha savollarga javob berishga harakat qiling.

Siz turli xil savollarga javob berishingiz kerak bo‘ladi. Ayrim savollarga 4 ta variantdan iborat bo‘lgan harflar bilan belgilanadigan javoblar keltiriladi. Siz o‘zingizning fikringizga ko‘ra to‘g‘ri javobga tegishli bo‘lgan harfni belgilang.

1 – namunada shunday savol berilgan va namuna tarzda javobni qanday belgilash ko‘rsatilgan.

1-namuna

1. Bir haftada necha kun bor?

- A 2 kun
- B 4 kun
- C 7 kun
- D 10 kun

Javobda “C” harfi belgilangan, chunki bir haftada 7 kun bor. Agarda sizning javobingiz to‘g‘riligiga ishonchingiz komil bo‘lmasa, sizning nazaringizda eng to‘g‘ridek ko‘ringan javobni tanlab, keyingi topshiriqqa o‘tishingiz mumkin.

Agar siz tanlagan javobingizni o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz, uning ustiga chizing va to‘g‘ri deb hisoblagan boshqa javobingizni belgilang hamda keyingi savolga o‘ting. Buni qanday bajarishni 2 – namunada ko‘rishingiz mumkin.

2-namuna

2. Bir haftada necha kun bor?

- A 2 kun
- B 4 kun
- C 7 kun
- D 10 kun

Ayrim vazifalarni bajarishda o‘z javobingizni savolning tagidagi maxsus ajratilgan joyga yozishingiz kerak bo‘ladi. 3 – namunada shunday savol keltirilgan.

3-namuna

3. Hikoyada aytيلاتقانىندا يەقىءا يەلنىن قاسىي ئەسىلىدا بولىب ئەتغان؟



3-namunada qalam va uning yonida 1 raqami tasvirlangan. Ushbu belgi mazkur savol uchun siz 1 ball olishingiz mumkinligini bildiradi.

4-namunada qalam va uning yonida 3 raqami tasvirlangan. Demak, ushbu savolning to‘g‘ri javobi uchun 3 ball olishingiz mumkin.

4-namuna

4. Aynan nima hikoyaning oxirini bir vaqtning o‘zida ham qayg‘uli ham zavqli qilmoqda? O‘qiganlaringiz bo‘yicha olgan ma’lumotlaringizdan foydalananib, o‘z fikringizni tushuntirib bering.



Daftar ikki qismdan iborat. Har bir vazifani bajarishga 40 daqiqadan vaqt ajratiladi. Har bir vazifaning o‘rtasida kichik tanaffus beriladi.

Hamma savollarga imkon qadar yaxshiroq javob berishga harakat qiling. Agar siz birorta savolga javob bera olmasangiz, keyingisiga o‘tishingiz mumkin.

To‘xtang

O‘qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.

TOMDAGI GULLAR

Ingibord Sigurdardottir



Men bilgan bir keksa buvi haqida sizga gapirib bersam bo'ladimi?

Aslida, bu g'alati qariya ayol kuchg'ayratga to'la. Uning haqiqiy ismi – Gunnionna, lekin men uni Gunn buvi deb atayman.

U bizning shaharga ko'chib kelgunga qadar, qishloqda yashar edi. Uning qishloqdagi uyi o'yinchoq uychaga o'xshar edi. Uning mittigina derazachalari bo'lib, tomida esa maysalar ko'karardi. Shuningdek, tomda gullar ham o'sar edi.

Gunn buvi o'z uyida yolg'iz yashar, lekin u o'zini yolg'iz his etmas edi. Chunki uning boshqa hamrohlari: igir, yettita tovuq, ikkita qo'y va mushugi bor edi.

Kunlarning birida Gunn buvi betob bo'lib qoldi.

– Sizda hech qanday jiddiy muammo yo'q, biroq shaharga ko'chib borishin giz kerak. Bu yerda butunlay yolg'iz yashash unchalik ham to'g'ri emas. Misol uchun, siz hovlida yiqilib tushsangiz va oyog'ingizni sindirsangiz, sigiringiz meni chaqirib bera olmaydi-ku, – dedi shifokor.

– O'zimga g'amxo'rlik qila olaman! – javob berdi Gunn buvi. Lekin keyin «Balki, shaharda yashash qiziqarliroqdir», – deb o'ylab qoldi.

– Yaxshi! – dedi u birdan, men shaharga ko'chib boraman!


Tez orada u tomorqasini sotib, bizning ko'p qavatli uydan xonodon sotib oldi.

Ammo u o'z jonivorlarini nima ham qila olardi? Ularni o'zi bilan shaharga olib keta olmaydi-ku, to'g'rimi? Baxtiga, qo'shnilar jonivorlariga qarab turishga bajonidil rozi bo'lishdi. Shunday bo'lsa-da, Gunn buviga do'stlari-jonivorlaridan ayrilish juda qiyin bo'ldi. Buni o'ylab, uning kayfiyati shunday tushib ketdiki, oxir-oqibat, Robert degan mushugini o'zi bilan olishga qaror qildi.

Gunn buvi hamma narsalarini yuk mashinasiga ortib, birpasda o'zining yangi uyi tomon yo'lga tushdi. U juda hayajonlanar va shaharni tezroq ko'rishni orzu qilar edi.

Men ham hayajonlanib, uyimiz ro'parasiga kim ko'chib kelishini sabrsizlik bilan kutar edim. Balki, u men bilan birga o'ynaydigan bolakaydir. Biroq u Gunn buvi bo'lib chiqdi. Yaxshi, har holda uning mushugi borku.

O'z uyini ko'rib chiqqan Gunn buvi unchalik ham xursand bo'lmadi.



Axir bu dahshat! – dedi u.

– Devorlari biram tekis va oppoq. Bu derazalarga qarang, ular haddan ziyod katta! Keyin u jim bo'lib qoldi.

– Men uyimga qaytaman! – dedi u va eshik tomon yo'l oldi. U birdan qichqirib yubordi, uning mushugi Robert derazadan sakragan edi.

– Tashvishlanmang, – dedim men tezda, – u shunchaki ayvonga sakradi. Qarang! Gunn buvi ayvonga yugurib chiqdi. U yerga yetib borganda esa Robertni unutdi.

Ayvon juda katta bo'lib, uzoqdan tog'lar va hatto dengizning bir bo'lagi ham ko'rinib turar edi. Gunn buvi uylarning tomlarini ko'rish uchun emas, balki faqat tog'lar va osmonni tomosha qilish uchun balandga cho'zildi. Shundan keyingina u qolishga qaror qildi.

Lekin ertasi kuni unga buyum larini joylashtirish uchun yordam bergani kelganimda, u hali ham xafa ko'rinardi.

– Jonivorlaringiz siz bilan birga bo'lmagani uchun xafamisiz? – qiziqdim men. – Ha, men ularni sog'indim, – deb xo'rsindi u.

– Unday bo'lsa, nima uchun ularni olib kelmaysiz? – deb so'radim.

Gunn buvi menga ko'z qisib, ayyorlik bilan jilmayib qo'ydi.

Ertasi kuni undan xabar olish uchun kelganimda, uyda hech kim yo'q edi. Gunn buvi avtobusda qishloqqa yo'l olgandi.



Kechasi zinapoyadan kelgan qoqolagan baland tovushdan uyg'onib ketdim. Bu nima bo'lishi mumkin? E, ha! Tovuqlar! Ehtimol, ular liftda yurishdan qo'rqishar?

Ertasi kuni men Gunn buviga tovuqlarga don berishda yordamlashdim.

– Men o'zimni go'yoki uyga qaytib kelganday his qilyapman, – derdi u.

– Tovuqlarim atrofimda qoqolashadi, agar yaxshilab qarasang, men ko'rib turgan tog'lar bu o'sha o'zimning tomorqam yaqinidagi

tog'lar ekanini tasavvur qilish mumkin. Lekin menga yer va o'tlarning hidi yetishmayapti. To'satdan, u ko'zlarini katta-katta ochib, qaddini rostladi. Gunn buvi qandaydir yangilik o'ylab topgandi.

– Eshit, – dedi u – seningcha, agar tomda o'tlar o'ssa, ajoyib bo'lmasmidi?

– Ertaga do'konga borishimizga to'g'ri keladi, deb o'ylayman.

Biz shunday ham qildik.

Uyga qaytgach, Gunn buvi uyning tomiga chim bo'laklarini yotqizdi. U



ehtiyotkorlik bilan chim bo'laklarini yoyib, tushib ketmasligi uchun mahkamladi.

Ana endi Gunn buvining ko'ngli biroz ko'tarildi. U shaharda o'zi uchun qishloq manzarasiga o'xshash burchak yarattdi. Hozir u tomdagi tomorqasini xuddi eski tomorqasiday yaxshi ko'radi. Tomda yana gullar ham o'smoqda.

Gunn buvi men taniydigan odamlarning birortasiga ham o'xshamaydi. U hamma narsani qila oladi! Hozir uni faqat bir narsa xavotirga solmoqda. Liftga sigirni kirgizishni eplay olarmikan?



To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.

Savollar: Tomdagi gullar

1. Bu voqeal kim tomonidan hikoya qilingan?

- (A) Buvi.
- (B) Yosh bola.
- (C) Shifokor.
- (D) Fermer.

2. Ushbu uylarning qaysi biri boshqalariga nisbatan Gunn buvining qishloqdagi uyiga ko‘proq o‘xshaydi?



3. Nima uchun shifokor Gunn buvining shaharga ko‘chib kelishi kerakligi haqidagi qarorga keldi?

- (A) Chunki do‘sralarisiz va yolg‘iz edi.
- (B) Chunki u yerda qarindoshlari bilan yashashi mumkin.
- (C) Chunki endi u o‘z jonivorlariga g‘amxo‘rlik qila olmas edi.
- (D) Chunki zarurat tug‘ilsa, kimdir unga g‘amxo‘rlik qilishi mumkin.

4. Gunn buvi shaharga ko‘chib kelganida uning jonivorlariga qarab turishga kim rozi bo‘ldi?

- A Qo‘shnilar.
- B Shifokor.
- C Gunn buvining oilasi.
- D Robert.

5. Gunn buviga yangi uyning devor va derazalari yoqmadidi. Yana nima sababdan o‘zini baxtiyor his qila olmadi?

- A U kasal edi.
- B U mushugini sog‘inar edi.
- C Unga ayvon yoqmadidi.
- D U qishloqdagi uyini sog‘inar edi.

6. Mushuk derazadan sakraganda Gunn buvi nima uchun qichqirib yubordi?



7. 6. Ayvonga chiqqan Gunn buvi uylarning tomlarini ko‘rish uchun emas, balki faqat tog‘lar va osmonni tomosha qilish uchun balandga cho‘zildi. Nima uchun u bunday qildi?



8. Hikoyada Gunn buvining rasmi tasvirlangan joyni toping. Nima uchun Gunn buvi bolakayga ko‘zini qisdi va ayyorlik bilan jilmayib qo‘ydi?



9. Gunn buvi yangi uyda o‘zini o‘z uyidagidek his qilishi uchun nimalar qildi? Ikkita misol keltiring.





10. Hikoyaning so‘nggida yangi uyda Gunn buvi o‘zini qanday his qildi?



11. Nima uchun hikoyaning oxirgi jumlasida «Liftga sigirni kirgizishni eplay olarmikan?» degan savol keltirilgandi?

- (A) Hikoyani yanada zavqliroq qilish uchun.
- (B) Hikoyaning axloqiy tomonini tushuntirish uchun.
- (C) Hikoyani ishonarli qilish uchun.
- (D) Kitobxonga nima bo‘lganini tushunishga yordam berish uchun.

12. Gunn buvi birinchi marta uyiga ko‘chib kelganida va hikoyaning oxirida bolada buviga nisbatan qanday his-tuyg‘ular kuzatildi? O‘qiganlaringizdan foydalanib, bolaning his-tuyg‘ularini ifodalang va uning his-tuyg‘ulari nima uchun o‘zgarganligini tushuntiring.



13. Ushbu hikoyadan nimani bilib olish mumkin?

- (A) Keksalar yangi joyga ko‘chib o‘tishganda hech qachon baxtli bo‘lmaydi.
- (B) Agar qadrli bo‘lgan narsani olsagina, yangi joyda o‘zining uyidagidek his qilishi mumkin.
- (C) Hattoki hayvonlar shovqin qilsa ham, ular bilan yashashga ko‘nikish mumkin.
- (D) Bolalar va keksalar yaxshi do‘sit bo‘la olishmaydi.





To'xtang

O‘qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.



Tupiklar tuni


Bryus Makmilan.

Har yili olovrang tumshuqli oq-qora qushlar Islandiyaning Xeymey oroliga uchib keladi. Bu qushlar «tupik»lar deb ataladi. Yorqin tumshuqlari va beso'naqay harakatlari sababli ularni “dengiz masxarabozlari” deb ham atashadi. Semiz tanasi va qisqa qanotlari ularning uchish va qo'nishlarini qiyinlashtiradi.

Anna ismli qiz Xeymey orolida yashaydi. U har kuni osmonni kuzatadi. Baland cho'qqida turib bu yilgi birinchi tupikni ko'rish uchun dengizdan nigohini uzmaydi. U «landi» deb shivirlaydi, bu islandcha tupik ma'nosini anglatadi. Tez orada osmonni to'ldirib tupiklar paydo bo'ladi, hamma joyda tupiklar, tupiklar... Ular qishlovdan dengiz bo'yiga, Anna yashaydigan qishloq va yaqin atrofdagi orollarga tuxum qo'yish va polaponlarni dunyoga keltirish maqsadida uchib kelishadi. «Dengiz masxarabozlari» har yili faqat va faqat o'z inlariga qaytib kelishadi. Chunki, bu ularning qirg'oqqa chiqadigan yagona vaqtidir.

Anna va uning do'stlari cho'qqilarga o'rmalab qushlarni kuzatishadi. Ular tupik juftliklarining bir-birlarini tumshuqlari bilan tuk-tuk qilib taqillatishlarini tomosha qilishadi. Oradan ma'lum vaqt o'tib, har bir juftlik cho'qqilarga berkitgan tuxumlari haqida qayg'urishadi. Polaponlar tuxumlarni yorib chiqqach, ota-onalari ularga baliq ovlab olib kelishadi.

Har bir polapon vaqt o'tgan sayin yosh tupikga aylana boshlaydi. Har bir





yosh tupik o‘zining birinchi parvoziga shaylanganda «tupiklar tuni» boshlanadi. Tupiklar tuniga hali bir necha hafta bor bo‘lishiga qaramay Anna ko‘proq qog‘oz qutilar tayyorlab qo‘yish haqida o‘y suradi. Yoz davomida yoshi katta tupiklar baliq ovlab polaponlari haqida g‘am chekishadi. Avgust oyida cho‘qqilarni gullar qoplaydi, ular gullaganda Anna kutish tugaganligini tushunib yetadi. Polaponlar o‘sib yosh tupiklarga aylanadi. Anna va uning do‘sstlariga quti va fonarlarni olish vaqtি keldi. Bugungi kechadan boshlab ikki hafta davomida tupiklar qishlov uchun dengizga uchib ketishni boshlaydi. Tun qamrovida tupiklar o‘z inlarini tashlab birinchi parvozlarini amalga oshiradi. Bu baland cho‘qqilardan qilingan qisqa parvozdir.

Ko‘pgina qushlar dengiz satxiga eson-omon qo‘nib olishadi. Lekin ba’zi qushchalarini qishloqdagi chiroq shu'lalari chalgitadi. Balki, ular bu holatni suv yuzasidagi oy aksi deb tasavvur qilishadi. Yuzlab tupiklar har kecha qishloqqa kelib qo‘nishadi, ular tekis joydan ucha olishmaydi, shu sababli yugurib berkinishga harakat qilishadi. Har kecha Anna va uning do‘sstlari suvgaga yetib bora olmagan qushchalarini qidirishadi. Ulardan tashqari bu qushchalarini qishloqdagi mushuk va kuchuklar ham ovlashadi. Ba’zi holatlarda qushchalarining avtomashina ostiga tushib ketish xavfi ham bor. Shu sababli bolalar adashib qolgan qushchalarini birinchi bo‘lib topishlari kerak. Kechki soat o‘nlardan keyin Xeymey oroli ko‘chalari bolalar bilan to‘lib ketadi. Anna va uning do‘sstlari tupiklarni qutqarish bo‘yicha musobaqa o‘ynaydi. Fonarlar bilan qurollangan bolajonlar qishloqning qorong‘i joylarida tentirab yurishadi. Anna tupikni topgach asta qog‘oz qutiga soladi.

Ikki hafta davomida Xeymey oroli bolajonlari kechasi uxlamaslik uchun, kunduzi uzoq dam olib, kechalari minglab tupiklarni qutqarishadi. Har kecha Anna va uning do'stlari qutqarilgan tupiklarni uylariga olib kelishadi. Ertasiga tupiklar to'la qutilarni dengiz qirg'og'iga olib borishadi. Anna qushchani shunday qo'liga oladiki u qanotlarini silkita olishi kerak, so'ngra havoda u yon bu yonga harakatlantirib dengiz tomon qo'yib yuboradi. Tupik bir oz parvoz qilib esomon suv yuzasiga qo'nadi. Kunlar o'tgan sayin, tupiklar tuni tugamaguncha Annaning qushchalari birin-ketin dengizga suzib ketadi. Dengizga qishlov uchun uchib ketayotgan oxirgi yosh va qari tupiklarni kuzatgan holda Anna ularga oq yo'l tilab kelasi bahorgacha xayrashib qoladi.

«Xayr, Ko'rishguncha!».....

To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.

Savollar: Tupiklar tuni

1. Nima uchun tupiklarga osmonda uchish va qo‘nish qiyinlik qiladi?
 - (A) Ular muzlikda yashagani uchun
 - (B) Ular kamdan –kam qirg‘oqga chiqqani uchun
 - (C) Ular baland qoyalarda yashagani uchun
 - (D) Ularning kalta qanotlari va semiz gavdalari bo‘lgani uchun
2. Tupiklar qayerda qishlaydilar?
 - (A) Qoyalar orasida
 - (B) Qirg‘oq sohilida
 - (C) Dengizda
 - (D) Muzliklarda
3. Nima sababdan tupiklar orolga uchib kelishadi?
 - (A) O‘zlarini himoya qilish uchun
 - (B) Yemish izlab topish uchun
 - (C) Tuxum qo‘yish uchun
 - (D) Uchishni o‘rganish uchun
4. Anna tupiklarning birinchi parvozlarini amalga oshirishlarini qanday bilar edi?

- (A) Katta tupiklarning polaponlariga baliq olib kelishidan
- (B) Qirg‘oqdagi gullarning ochilishidan
- (C) Qushlarning o‘z polaponlarini berkitishidan
- (D) Yoz faslining boshlanishidan

5. Tupiklar tunida nima sodir bo‘ladi?

- (A) Tupik juftliklari bir-birlarini tumshuqlari bilan tuk-tuk qilib taqillatishadi.
- (B) Birinchi parvozga shaylanishadi.
- (C) Tupiklarning tuxumidan polaponlar chiqadi.
- (D) Tupiklar qirg‘oq sohillariga chiqishadi.

6. Qishloq aholisi tupiklarning xato qilmasliklari uchun nima qilishlari mumkin?

- (A) Chiroqni o‘chirishi
- (B) Qutilar tayyorlashi
- (C) Mushuk va kuchuklarni uyga qamashi
- (D) Osmonni fonarlari bilan yoritishadi

7 va 8 savollarda Anna tupiklarni qanday qutqarishini tushuntirishingiz so‘raladi

7. Annaning tupiklarni qutqarishda fonaridan qanday foydalanganini izohlab yozing.



2

8. Anna tupiklarni qutqarishda qutilardan qanday foydalangani haqida yozing.



9. Hikoyada tupiklarni kutishi mumkin bo‘lgan qaysi xavf-xatar keltirilgan?

- (A) Dengiz yuzasiga qo‘nayotganda cho‘kib ketish
- (B) Uyalar orasida adashib qolish
- (C) Ota-onasidan yetarlicha baliq ololmaslik
- (D) Mashina tagida qolib ketish

10. Bolalar nima sababdan tupiklarni kun yorug‘ida qo‘yib yuborishlarini matndan topib yozing.



11. Tupiklar Anna va uning do'stlari qo'yib yuborganidan so'ng nima qilishadi?

- (A) Qirg'oq bo'ylab sayr qiladilar
- (B) Qoyalardan uchib o'tadilar
- (C) Qishloqda berkinadilar
- (D) Dengizda suzadilar

12. Anna tupiklarni ozodlikka qo'yib yuborgandan so'ngi ikki xil hissiyotni yozing. Nima uchun shu hissiyotlarni boshidan kechirganini izohlab yozing?



13. Siz Anna va uning do'stlari kabi tupiklarni qutqarishga borishni istaysizmi? Javob berishda o'qigan hikoyadan foydalanishingiz mumkin.



To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz navbatdagi sahifani ochmang.

“Tomdagи gullar” deb nomlangan hikoyani o‘qish siz uchun qanchalik yoqimli bo‘ldi?

*Faqat **bitta** javobdagi aylanani bo‘yang.*



Menga juda yoqdi-----



Menga biroz yoqdi-----



Menga unchalik yoqmadi -----



Menga umuman yoqmadi -----

“Tupiklar tuni” deb nomlangan hikoyani o‘qish siz uchun qanchalik yoqimli bo‘ldi?

*Faqat **bitta** javobdagi aylanani bo‘yang.*



Menga juda yoqdi-----



Menga biroz yoqdi-----



Menga unchalik yoqmadi -----



Menga umuman yoqmadi -----

100115, Toshkent shahar,
Chilonzor tumani, Nurxon ko‘chasi, 21-uy
Telefon: (+998 71) 231-07-53 (3004)
www.markaz.tdi.uz
Telegram: t.me/milliymarkaz